


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK - IQTISODIYOT INSTITUTI

Ro'yxatga olindi:
№ 936
2022 yil " 29 " 08



**"PEDAGOGIKA TARIXI" FANIDAN
ISHCHI DASTUR (SILLABUS)**

Bilim sohasi:	100000	-	Gumanitar soha.
Ta'lim sohasi:	110000	-	Pedagogika.
Ta'lim yo'nalishi:	60112400	-	Professional ta'lif (Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish).

Qarshi - 2022 y.

“Kasbiy psixologiya” fani sillabusi

1	Fan (modul) kodi KP _____	O‘quv yili 2022-2023	Semestr 5	ECTS krediti 2
Fan (modul) turi Talaba tanlov		Ta’lim tili O‘zbek/rus		Haftalik dars soati 2
Fanning nomi		Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim	Jami yuklama
Pedagogika tarixi		30	30	60
2	<p style="text-align: center;">I.Fanning mazmuni</p> <p>Vatanimizning kelajagi bo‘lgan yosh muhandis-pedagog kadrlarni intellektual salohiyatini rivojlantirish, har sohada barkamol qilib tarbiyalash uchun kasb-hunarning ahamiyati, o‘z kasbini sevishi, fidoyisi bo‘lishi, kasbi doirasida eng ilg‘or tajribalarni o‘zlashtirishi, ularda kasb egasiga hurmat, iftixon, vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg‘ularini uyg‘otish va shakllantirishdan iborat.</p> <p>“Pedagogika tarixi” fani – pedagogika fanining taraqqiyot bosqichlarini, o‘ziga xos tomonlarini hamda allomalarining ta’limiy va tarbiyaviy fikrlarini o‘rganadi. Mazkur fan pedagogikaning mohiyati, o‘ziga xosligini tahlil etadi.</p> <p>Fan bo‘yicha talabalarning bilimi, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar.</p> <p>“Pedagogika tarixi” fanini o‘zlashtirish jarayonida amalda oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:</p> <p>“Pedagogika tarixi” fanining predmeti, ob’yekti, tarbiyaviy g‘oyalar, allomalarining ilm va uni o‘rganishning ijtimoiy ahamiyati borasidagi fikrlari, manbalari haqidagi ma’lumotlarni bilishi kerak.</p> <p style="text-align: center;">II. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentliklar)</p> <p>«Pedagogika tarixi» fanini o‘zlashtirish jarayonida bakalavr quyidagilar bo‘yicha nazariy bilimga ega bo‘lishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> - “Pedagogika tarixi” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida bakalavr; - pedagogikaning metodologik asoslari va taraqqiyoti davrlarini; - insonning madaniy va ma‘naviy shakllanishi tarixini; - kasb ta’limining asosiy komponentlarini; - kasb ta’limi muassasalarida tarbiya jarayonining mohiyati haqida tasavvurga ega bo‘lishi; - kasbiy ta’limning tamoyillarini; - kasbiy ta’lim samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlarini; - kasbiy ta’lim samaradorligini baholashning an‘anaviy usullarini; - pedagogik faoliyatni boshqarish dasturini ishlab chiqish; - ta’lim oluvchilarning o‘quv faoliyatini tashkil etish; 			

- ustoz-shogird an‘analarini takomillashtirish;
- shaxslararo munosabatlarni o‘rnata olish va pedagogik bilimlar asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish malakalariga ega bo‘lishi kerak.

Quyidagilar bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar orttirishi zarur:

-Talabalarda pedagogika tarixi, pedagogik fikrlar tarraqqiyotining mohiyatini yorituvchi nazariy bilimlarni egallash, talabalarning komil inson, yetuk mutaxassisni tarbiyalab voyaga etkazishga oid davlat siyosatining mazmuni, ustuvor tamoyillari, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, ilg’or texnologiyalardan xabardor bo‘lishlari uchun qulay muhitni yaratish;

- fikr va qarashlarini og‘zaki va yozma ravishda adabiy til qoidalari asosida konstruktiv, mantiqiy ifodalash **ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.**

III. Ta’lim texnologiyalari va uslublari

Yo‘nalishning o‘ziga xos xususiyatlari dasturni interfaol usullarda o‘zlashtirishni taqazo qiladi. Bunda asosiy e’tibor auditoriya mashg‘ulotlarida va mustaqil tayyorgarlikda o‘zlashtiriladigan chuqurlashtiriladigan nazariy bilimlarga hamda ob’ektiv jarayonlar va hodisalarga nisbatan dunyoqarashni shakllantirishda ma’ruza mashg‘ulotlariga katta o‘rin ajratiladi.

Dastur materiallarini o‘zlashtirish to‘rt xil:

- muammoli mavzular bo‘yicha;
- mustaqil o‘zlashtirilishi murakkab bo‘lgan bo‘limlar bo‘yicha;
- ta’lim oluvchilarda alohida qiziqish uyg‘otuvchi bo‘limlar bo‘yicha;
- ma’ruzalarni interfaol usulda o‘qitish yo‘li bilan;

-mustaqil ta’lim olish va ishslash, kollekviumlar va munozaralar jarayonida o‘zlashtiriladigan bilimlar bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshirishni nazarda tutadi.

Mustaqil tayyorgarlik jarayonida talaba adabiyotlar, internet materiallari va me’yoriy hujjatlar bilan ishslashni uddalashni namoyon qilishi, auditoriya mashg‘ulotlari paytida qabul qilingan ma’lumotlarni mushohada qilish va mustaqil ijodiy qarorlar qabul qila olish qobiliyatlarini ko‘rsatishi zarur.

Fanni o‘zlashtirishda masofadan o‘qitish (modul platformasi), darslik, o‘quv qo‘llanmalari va ma’ruzalar matnlarining elektron versiyalari, ma’ruzalar o‘qish, video-audio mashg‘ulotlar va elektron resruslar (Internet tarmog‘i orqali) dan foydalaniladi.

Dastur talabalar bilimini reyting-nazoratidan foydalanadigan o‘quv jarayonini tashkil qilishning kredit-modul tizimi tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Nº t/r	Maruza mashg'ulotlar mavzulari	Dars soatlari hajmi
1-MODUL. Eng qadimgi davrlardan milodning VII asrigacha ta`lim-tarbiya va pedagogik fikrlar. “Pedagogika tarixi” fanining boshqa fanlar bilan aloqalarini o'rganish.		
1.	<p>Mavzu: “Pedagogika tarixi” fanining maqsadi va vazifalari. Eng qadimgi davrlardan milodning VII asrigacha ta`lim-tarbiya va pedagogik fikrlar.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1.Qadimgi xalq og`zaki ijodiyotida tarbiyaga oid fikrlar. 2. Avesto eng qadimgi yozma ma`rifiy yodgorlik sifatida. 3.Qadimgi turkiy xalqlar yodgorliklarida tarbiyaga oid fikrlar. 4.Eng qadimgi davrlarda ulug`langan axloqiy sifatlar. 5. Buyuk mutafakkirlarning qarashlari. 	2
2.	<p>Mavzu: VII-XIV asrlarda maktab, tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1.Islom dini g`oyalarining ta`lim-tarbiyaga ta`siri.Musulmon maktablarida ta`lim-tarbiya. 2.Hadis ilmining paydo bo`lishi. Imom al Buxoriy va Imom at-Termiziyning hadis ilmi rivojidagi xizmatlari. 3.Hadislarning mazmuni va tarbiyaviy ahamiyati. So`fiylik ta`limoti. 4.Ahmad Yassaviy. Xoja Abduxoliq G`ijduvoniy. 5.Bahovuddin Naqshband. 	2
II-modul. Sharq uyg`onish davrida ta`lim-tarbiya masalalari.		
3.	<p>Mavzu: Sharq uyg`onish davrida ilm-fan va madaniyat.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1.Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning ilmiy merosi va uning didaktik qarashlari. 2. Abu Nasr Forobiy. 3.Abu Rayxon Beruniy. 4.Abu Ali ibn Sino. 5.Ta`limiy-axloqiy qarashlarning paydo bo`lishi. 	2
4.	<p>Mavzu: XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston o`lkasida ta`lim-tarbiya va pedagogik fikrlar.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1.Turkiston o`lkasida diniy-islomiy tarbiya muassasalari va pedagogik fikrlar taraqqiyoti. 2.Turkistonda chorizm maktab siyosatining boshlanishi. Rus-tuzem maktablari va matbuot. 3.Turkistonda jadidchilik harakati va ta`lim-tarbiya. 4.Mahmudjo`ja Behbudiy. Munavvar qori Abdurashidxon o`g`li. Ishoqxon Ibrat. 5.Abdulla Avloniy. Abdurauf Fitratning ta`lim-tarbiya haqidagi qarashlari,uning o`ziga xosligi. 	2
5.	<p>Mavzu:1917-1990-yillaridagi ta`lim-tarbiya, maorif va pedagogik fikr.</p> <ol style="list-style-type: none"> 1.O`zbekistonda 1917-1924-yillarda maktab va maorif.Ikkinchi jahon urushi va urushdan keyingi yillarda O`zbekistonda xalq maorifi va pedagogika. 	2

	2.Siddiq Rajabov. 3.XX asrning 70-80-yillarida O`zbekistonda xalq ta`limi.	
III-modul. Mustaqil O`zbekistonda ta`lim va pedagogik fikrlar taraqqiyoti.		
6.	Mavzu: Mustaqil O`zbekistonda ta`lim va pedagogik fikrlar taraqqiyoti. 1.Mustaqillik davrida ta`lim tizimidagi islohotlar. 2. O`zbekistonda “Ta`lim to`g`risida”gi qonuni. 3.Ta`lim tizimi va turlari. 4.Xorijiy tajribalarning qo`llanilishi.	2
7.	Mavzu: Jahon pedagogika fani va rivojlanish tarixi.Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta`lim tizimi. 1.Qadimgi Yunonistonda va Rim davlatlarida ta`lim-tarbiya. 2.G`arbiy Yevropada maktab, maorif va pedagogik fikrlar taraqqiyoti. 3.Yan Amos Komenskiy. Iogann Genrix Pestalotsi.Konstantin Dmitrievich Ushinskiy. 4.Amerika qo`shma shtatlarida ta`lim tizimi. 5.Yaponiyada ta`lim tizimi. Janubiy Koreya, Fransiya, Germaniya kabi davlatlarda ta`lim tizimi.	2
JAMI		14

Nº t/r	Seminar (amaliy) mashg`ulotlar mavzulari	Dars soatlari hajmi
I-MODUL. Eng qadimgi davrlardan milodning VII asrigacha ta`lim-tarbiya va pedagogik fikrlar. “Pedagogika tarixi” fanining boshqa fanlar bilan aloqalarini o'rganish.		
1.	Eng qadimgi ma`rifiy yodgorliklarda ta`lim-tarbiya masalalari	2
2.	Ilmining paydo bo`lishi va mashhur muhaddislarning hadis ilmini yaratishdagi xizmatlari.	2
II-MODUL. Sharq uyg`onish davrida ta`lim-tarbiya masalalari.		
3.	Uyg`onish davri va unda ta`lim-tarbiya masalalari	2
4.	Ibn Sino ta`lim-tarbiya haqida	2
5.	Yusuf Xos Xojibning Hayoti va ijtimoiy faoliyati (Qutadg`u bilig asarida ta`lim va axloq muammolari)	2
III-MODUL.Mustaqil O`zbekistonda ta`lim va pedagogik fikrlar taraqqiyoti.		
6.	Kaykovusning “Qobusnoma” asarida ta`limiy-axloqiy muammolar	2
7.	Temuriylar davrida ta`lim-tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti	2
8.	Avloniyning pedagogik faoliyati va ta`lim-tarbiya haqidagi qarashlari	2
JAMI		16

IV. MUSTAQIL TA'LIM

Talabanining mustaqil ta`limi har bir modul bo'yicha pedagogning rahbarligida oraliq o'tkaziladi. Mustaqil ta`lim mavzulari yakuniy baholashning 5-10% tashkil qiladi.

Nº t/r	MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI
1.	Ta`limiy-axloqiy qarashlarning paydo bo`lishi.
2.	Yusuf Xos Hojib.
3.	Kaykovusning “Qobusnoma” asari.
4.	Ahmad Yugnakiy “Hibat ul-haqoyiq”.
5.	Muslihiddin Sa`diy “Guliston”.
6.	Ta'lim tizimini isloh qilishning mohiyati.
7.	“Ta'lim to‘g‘risida”gi Qonun, professional ta'lim.
8.	Kasbiy ta'lim tizimi va turlari.
9.	Muhammad Tarag`ay Ulug`bek.
10.	Zahiriddin Muhammad Bobur.
11.	Alisher Navoiy.
12.	Husayin Voiz Koshifiy.
13.	Buxoro, Xiva, Qoqon xonliklarida ta`lim-tarbiya, maktab.
14.	Jahon Otin Uvaysiy.
15.	Abdurauf Fitratning axloqiy qarashlarining o`ziga xosligi.
16	Kasb-hunar kollejiarida o‘quvchilarni tarbiyalash.

Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan esse, ma’ruza va amaliy mavzular bo‘yicha konspektlar, testlar, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

V. FAN BO‘YICHA TALABALAR BILIMINI BAHOLASH VA NAZORAT QILISH MEZONLARI

BAHOLASH USULLARI	TEZKOR TESTLAR, YOZMA ISH, OG‘ZAKI SO‘ROV, PREZENTATSIYALAR
Baholash mezonlari 5 “a’lo”.	<p style="text-align: center;">5 “a’lo” baho uchun.</p> <p>1. Mashg‘ulot mavzusi bo‘yicha konspektlarda mavzuni to‘liq ochib berishi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - mavzu bo‘yicha yangi manbalardan (internet, xorijiy adabiyot manbalaridan foydalanish va b.) foydalangan bo‘lishi; - mavzu bo‘yicha amaliy ko‘nikma to‘liq yoritilganligi; - grafikli organayzerlar va prezентatsiyalar bo‘yicha mustaqil mushohada yuritishi; - aniq tasavvurga ega bo‘lishi. <p>2. Mashg‘ulotda talabaning nazariy bilimini baholash:</p> <ul style="list-style-type: none"> - talaba mashg‘ulot mavzusi bo‘yicha talabaning javobi to‘liq, turli manbalardan olingan qo’shimcha ma’lumotlarga boy, bilim hajmi dastur doirasidan chiqadi. Dasturda tavsiya etilgan asosiy adabiyotlarni to‘liq o’zlashtirgan va qo’shimcha adabiyotlar bilan tanish. - mavzu bo‘yicha savollarga javob berishda ijodiy fikrlaydi, aniq javob beradi va javobini mantiqan asoslaydi. - talaba mavzu muhokamasi, munozaralarda faol qatnashadi, o’z fikrini himoya qila biladi. Interaktiv o‘yinlarda faol va ijodiy qatnashadi. <p>3. Test topshirig‘ini baholash: “a’lo” baho uchun talaba test topshiriqlarini 86-100%ga echadi;</p> <p>4. Vaziyatli masalani yechishni baholash:</p> <ul style="list-style-type: none"> - talaba mashg‘ulotda berilgan vaziyatli masalani o’z vaqtida, sifatlari bajaradi.

	<p>Vaziyatli masalalarni yechishda ijodiy fikrlaydi, aniq javob beradi va javobini mantiqan asoslaydi.</p> <ul style="list-style-type: none"> - talaba vaziyatli masalani muhokamasi, munozaralarda faol qatnashadi, o'z fikrini himoya qila biladiva ijodiy qatnashadi – talaba taqdim etilgan o'quv masalalarini yechish yo'llarini izlaydi, turli materiallarni biladi va aytib bera oladi hamda tasavvurga ega bo'ladi.
4 “yaxshi”.	<p>4 “yaxshi” baho uchun.</p> <p>1. Mashg’ulot mavzusi bo'yicha konspekti quyidagilarga javob berishi lozim:</p> <ul style="list-style-type: none"> - mavzu bo'yicha yangi manbalardan (internet va b.) foydalangan holda mavzuni yoritish; - grafikli organayzerlar va prezentsiyalar bo'yicha mustaqil mushohada yuritish; - mavzu bo'yicha mustaqil mushohada yuritish; - mavzu mohiyatini tushuntirib bera olish <p>2. Mashg’ulotda talabaning nazariy bilimini baholash:</p> <ul style="list-style-type: none"> - talaba o'rganilayotgan mavzularni aloqadorligini bilish hamda materialni tavsiflay olish ko'nikmasiga ega bo'lishi bilan birgalikda, berilgan savollarni bir-birlariga aloqadorligini ochib bergen holda javob beradi, o'rganilayotgan nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lay oladi va mustaqil mushohada qila oladi; - bilim va ko'nikmalar mazmunini tadbiq qila olish mahorati, yozib olish va eslab qolish faoliyatini amalga oshiradi, bilimlarni amaliyotda qo'llay oladi; - talaba mashg’ulotlarga tayyorlangan, dasturiy materiallarni biladi, mohiyatini tushunadi va tasavvurga ega. <p>3. Test topshirig'ini baholash uchun talaba test topshiriqlarini 71-85%ga yechadi;</p> <p>4. Vaziyatli masalani yechishni baholash:</p> <ul style="list-style-type: none"> - talaba mashg’ulotda berilgan vaziyatli masalani o'z vaqtida bajaradi. Vaziyatli masalalarni yechishda ijodiy fikrlaydi, aniq javob beradi. - talaba vaziyatli masalani muhokamasi, munozaralarda qatnashadi, talaba taqdim etilgan o'quv masalalarini yechish yo'llarini izlaydi, turli materiallarni biladi va aytib bera oladi hamda tasavvurga ega bo'ladi, bir tipdag'i masalalarni echa olish, yozib olish va eslab qolish faoliyatini amalga oshiradi.
3 “qoniqarli”.	<p>3 “qoniqarli” baho uchun.</p> <p>1. Mashg’ulot mavzusi bo'yicha konspekti quyidagilarga javob berishi lozim:</p> <ul style="list-style-type: none"> -mavzu bo'yicha ma'ruza materiallaridan prezentsiya va organayzerlar kam; -manbalardan foydalanmagan; -berilgan uy vazifasi mavzusi bo'yicha tasavvurga ega emas, vazifa bajarilmagan. <p>2. Mashg’ulotda talabaning nazariy bilimini baholash:</p> <ul style="list-style-type: none"> - dastur doirasida to'lik fikrlay olmaydi, moxiyatini tushunadi, lekin to'liq og'zaki yoki yozma javob bermaydi. - mavzu bo'yicha savollarga javob berishda xatoliklarga yo'l qo'yadi, aniq javob berolmaydi va javobini mantiqan asoslay olmaydi. <p>3. Test topshirig'ini baholash uchun talaba test topshiriqlarini 55-70%ga yechadi;</p> <p>4. Vaziyatli masalani yechishni baholash:</p> <ul style="list-style-type: none"> - talaba mashg’ulotda berilgan vaziyatli masalani bajaradi, lekin javobini mantiqan asoslay olmaydi. Vaziyatli masalalarni yechishda ba'zi noaniqliklarga yo'l qo'yadi. - talaba vaziyatli masalani muhokamasi, munozaralarda to'liq qatnashmaydi, talaba taqdim etilgan o'quv masalalarini yechish yo'llarini izlaydi, turli materiallarni biladi va aytib berishda qiynaladi, bir tipdag'i masalalarni yecha oladi, lekin to'liq og'zaki yoki yozma javob bermaydi.
2 “qoniqarsiz”.	<p>2 “qoniqarsiz” baho uchun.</p> <p>1. Mashg’ulot mavzusi bo'yicha konspekti quyidagilarga javob berishi lozim:</p> <ul style="list-style-type: none"> - mavzu bo'yicha konspekt va uy vazifalarini tayyorlab kelmagan talabalarga beriladi. <p>2. Mashg’ulotda talabaning nazariy bilimini baholash:</p>

	<ul style="list-style-type: none"> - mavzu buyicha aniq tasavvurga ega emas, og'zaki yoki yozma javob bera olmaydi. - mavzu bo'yicha tushuncha yo'q. <p>3. Test topshirig'inini baholash uchun talaba test topshiriqlarini 54% gacha yechadi.</p> <p>4. Vaziyatli masalani echishni baholash:</p> <ul style="list-style-type: none"> - talaba vaziyatli masalani muhokamasi, munozaralarda umuman qatnashmaydi, bir tipdagi masalalarни yecholmaydi. - masalaning mohiyatini tushunmaydi, og'zaki yoki yozma javob bermaydi.
--	--

Baholash turlari	Maksimal ball	O'tkazish vaqtি
Joriy nazorat	5	Semestr davomida
Amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarligi, to'laqonli ishtiroki va to'g'ri javob berganligi. Mustaqil ta'lim topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarganlishi.	5	
Oraliq nazorat	5	
Yakuniy nazorat	5	Semestr oxirida

VI. Talabalarning fan bo'yicha o'zlashtirgan ballari quyidagi jadval asosida kredit ballariga va harflar tizimiga o'giriladi

Ball	ECTS baho	ECTSning ta'rifi	Ta'rifi
86-100	A	5	A'lo
81-85	B	4	Yaxshi
71-80	C		
60-70	D	3	Qoniqarli
55-59	E		
31-54	FX	2	Qoniqarsiz
0-30	F		

6	<p style="text-align: center;">Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari</p> <p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <p>1.Komiljon Hashimov, Sanobar Nishonova "Pedagogika tarixi" II qism, Darslik, A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, T.; 2005y.</p> <p>2. A. Zunnunov, M. Xayrullayev, B.Tuxliyev va N. Hotamov "Pedagogika tarixi", Darslik, Sharq nashriyot matbaa konserni bosh tahririyati, T.; 200y.</p> <p>3.A.Zunnunov tahriri ostida "O'zbek pedagogikasi tarixi" O'quv qo'llanma,"O'qituvchi", T.; 1997y.</p> <p>4.G. Niyozov, M. Axmedova, "Pedagogika tarixidan seminar mashg'ulotlari" O'quv qo'llanma, "Noshir", T.; 2011y.</p> <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <p>5. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil qatiyi tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatini kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 (yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. //Xalq so'zi gazetasi 2017 bil 16 yanvar №11.</p> <p>6.Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini bиргаликда</p>
----------	---

- barpo etamiz. "O'zbekiston", 2016.
7. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olujanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston", 2017.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha harakatlar strategiyasi. 7 fefral 2017 yil.
9. Narzulla Muslimov, Zokir Raximov, Aljon Xo'jayev Kasbiy pedagogika, O'quv qo'llanma T., 2020. 510b.
10. Nishonaliev U.N. Kasbiy ta'lif pedagogikasi. O'quv qo'llanma -T.: TDPU. 2007y.
11. Abdiquddusov O., Rashidov H. Kasb-hunar ta'limi pedagogikasi. O'quv qo'llanma. O'MKHTTKMO va UQTI, T.: - 2009 120 b.
12. Muslimov N.A., Qo'ysunov O.A., Sharipov Sh.S. "Kasb ta'limi pedagogikasi". fanidan o'quv metodik majmua. Nizomiy nomidagi TDPU, 2011. – 20.
13. Xo'jayev N va boshqalar., Pedagogika asoslari. – T., 2003.– 344 b.

Internet resurslar:

www. tdpu. uz
 www. pedagog. uz
 www. ziyonet. uz
 www. edu. uz

7	Qarshi muhandislik iqtisodiyot institutida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.
8	Kasbiy psixologiya fan sillabusi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2020 yil 14 avgustda tasdiqlangan fan dasturi asosida ishlab chiqilgan. Mazkur sillabus «Ijtimoiy fanlar» kafedrasining 2022yil 26-avgustdagи 1-sonli) yig'ilishida ma`qullangan. Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti Kengashining 2022 yil 29-avgustdagи 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
9	Fan dasturi uchun ma`sul N. Amirov- Ijtimoiy fanlar kafedrasini katta o`qituvchisi
10	Taqrizchilar Sh. Nurillayeva –QDU dotsenti O. Begimov- QMII professori

